

**BO'LAJAK O'QITUVCHILAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL
ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI**

Marhamat tuman

11-maktab psixologi

Akbarova Gulsora

Respublikamizda ta'lif oluvchilarning mustaqil ta'lif olishlari, mustaqil ishslash malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetensiyalarini, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda.

Ta'lif tizimida olib borilayotgan islohotlar talabalarni mustaqil fikrlashini rivojlantirish, individual ta'lif traektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga oid muammolarni bartaraf etishga qaratilgandir. Oliy ta'lif muassasalarida bu vazifalarni amalga oshirishga bosqichma-bosqich o'tish rejalashtirilgan. Mustaqil ta'lif jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga muammo sifatida talqin etilganligi bois, 2020-yil 23-sentyabrda tasdiqlangan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonunida ham "Mustaqil ta'lif olish yakkav tartibda amalga oshiriladi hamda ta'lif oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma'naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi" deb belgilab qo'yilganligini keltirib o'tish mumkin. Dunyoda mustaqil ta'lif olish sifatini oshirish shaxsning jamiyatda muvaffaqiyatli o'z o'rnini topishida muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Jumladan, oliy ta'lif tizimini 2030 – yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida "butun hayot davomida sifatli ta'lif olishga imkoniyat yaratish" g'oyasi ta'lif oluvchilarning mustaqil ta'lif olishlari, mustaqil ishslash malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetensiyalarini, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bugungi kunda insoniyat axborot

texnologiyalari yordamida ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatish bilan chegaralanmay, jamiyatda iqtisodiy, siyosiy, harbiy va boshqa sohalarni boshqarish, ularga ta'sir etish va istiqbolini belgilash imkoniyatiga ham ega bo'lib bormoqda. Tadqiqot predmetining xususiyatlarini hisobga olgan holda hamdatalabalarda axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish mazmun mohiyatini teran anglashimiz uchun "mustaqil ta'lim" tushunchasiga to'xtalib o'tishni lozim topdik. "Mustaqil ta'lim" tushunchasini bilim olish sharoitlariga nisbatan darajalarini aniqlash, o'quv jarayonida ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishni taqozo etadi. Talabalarning olgan bilimlarini o'zlarini o'zlashtirish natijalariga bog'liq bo'lgan va o'quv faoliyatiga ta'sir qiladigan xususiyatlari didaktikaning yakka holda yondashish tamoyillarida o'z aksini topgan. Bu xususiyatlar shaxs holati, jismoniy va psixologik sifatlari: xotirlash va tafakkurlash jarayonlariga doir barcha xususiyatlari asab tizimining xossalari, xarakter va erkinlik darajalari, qobiliyatlar, tabiatan talantliligi, hissiy a'zolarining doimiy yoki vaqtincha zaifligi va shu kabilardan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari talabalarning o'quv faoliyatiga turli ijtimoiy omillar (guruh jamoasi, talabaning uydagi o'rni va boshqa tashqi ta'sirlar) ta'sir qiladi. Talabalarning shaxsiy xususiyatlari ichki va tashqi omillar to'plami ma'lum darajada o'quv jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Psixoglarning fikricha talabalar o'quv fanlarini o'zlashtirishda faqat mustaqil faoliyatigina samarali natijalar beradi. O'quv-tarbiya jarayonini individuallashtirish ishlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, shaxsning qaysi xususiyatlarini nazarda tutayotganimizga bog'liq holda individual yondashishning ikki turini farqlash mumkin. Ularda talabaning turli xususiyatlari majmuasini yoki ayrim xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim individuallashtirilishi mumkin. Bu muammoga doir tadqiqotchilarishlarida olimlar talabalarning bilim, ko'nikma, malaka darajalari majmuasidan kelib chiqadigan individuallashtirish masalalarini yoritganlar. Jumladan,

E.S.Rabunskiy, o'zining tadqiqot ishlarida o'quvchilarning asosan qo'yidagi uchta xususiyatlari:

- 1) o'zlashtirish darajalari;
- 2) mustaqil tafakkurlash darajalari;
- 3) o'qishga qiziqish harakatlari darajalarini e'tiborga olgan holda ularni o'qish va mehnat qilishga bo'lgan qobiliyatları negizida o'quv jarayonini individuallashtirishni ko'rsatib o'tgan.

Pedagogika va psixologiyaga oid adabiyotlarda shaxs psixologik jarayonining (masalan, fazoviy tafakkur, xotira) ba'zi bir xususiyatlarini o'rghanishga doir tadqiqot ishlarini uchratish mumkin. Bu tadqiqot ishlarida kupincha qaralayotgan ishlardan tashqari o'quv ishlarida hisobga olish uchun zarur bo'lgan boshqa shaxsiy xususiyatlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilmagan. Bilish tushunchasi umumiylidan holdan aqliy qobiliyatlar tushunchasi mohiyati jihatidan yaqindir.

Umumiylidan aqliy qobiliyat talabaning o'quv faoliyatida talab etiladigan barcha qobiliyatlar majmuasini o'zida mujassamlashtiradi. Bunga talabaning o'quv materialini xotirasida saqlash qobiliyati, ijodiy fikrlash qobiliyati, mantiqiy amallar bajarish qobiliyati va hokozolar kiradi. Bu qobiliyatlar psixologiyada turli sinflarga ajratiladi va har xil talqin qilinadi. Pedagogikada aqliy qobiliyatlar tashxisining asosiy usuli tarzida ko'p yillar davomida rivojlantiruvchi eksprementlardan foydalanilgan. Bu usul nafaqat oliy o'quv yurti talabalari balki maktab o'quvchilari, kasb-hunar maktablari o'quvchilarning yangi o'quv materialini o'zlashtirish qobiliyatlarini nomoyon qilish jarayonida qo'llanilgan.

Masalan, Z.I.Kalmikova aqliy qibiliyatlar tashxisi uchun o'rgatuvchi eksprement tarzida talabalarning muammoli xarakterdagi topshiriqlarni bajarish jarayonida tavsiya etadi. Talabalarning aqliy qobiliyati tashxisining asosiy usullaridan yana biri test sinovini o'tkazish usulidir. Bunday usuldan foydalanilganda odatda talabalarga o'quv materialiga bog'liq bo'limgan topshiriqlar beriladi. Bu topshiriqlarni bajarish talabalardan turli fikrlash jarayonlarini talab etadi. Berilgan topshiriqlarni sifatli bajarish natijasida

talabalarning aqliy qobiliyati aniqlanadi. O'quv jarayonida qatnashayotgan talabalar ichida umumiy aqliy qobiliyatlardan farqli o'laroq, maxsus qobiliyatli va to'g'ma qobiliyatilari ham bo'lishi mumkin. Shunday qilib, psixologiya fani sohasida umumiy va maxsus qobiliyat bo'yicha erishilayotgan tadqiqotishlaridan qo'yidagi xulosalarni keltirish mumkin: talabalarni qobiliyatilik darajalari qobiliyatini rivojlantirish ularning salohiyat imkoniyatlariga qarab farqlanishi lozim. Boshqacha aytganda ularni qobiliyatlarini aniqlash uchun bir xil topshiriqlar asosida ishlashga jalg qilish mumkin emas. Ularga qobiliyati va salohiyati darajasiga mos topshiriqlar berish muhimdir. Talabaning intellektual malakasiga mos keladigan bilimlarni mustaqil bilim olish qobiliyati bilan aqliy qobiliyati bir-biri bilan uzviy bog'liq. Talabalarni bilimlarini mustaqil bilim olish qobiliyatini aqliy mehnat malakalari va mehnat malakalari yoki o'quv malakalari deb ham atash mumkin. Ko'zatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda oliv o'quv yurtlarida talabalarga ayniqsa, "Umumiy pedagogika" fanini o'qitishda bunday malakalarni shakllantirishga yetarli darajada e'tibor bermayotganligi ko'zga tashlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda axborotni mustaqil izlash va tahlil qilishning pedagogik-psixologik asoslari zamirida:

- talabalarni o'quv malakalalari o'quv materiali bilan mustaqil ishslash jarayonida hosil bo'ladi;
- o'quv malakalari o'quv materialini izlash, tahlil qilish uni qabul qilish, qayta ishslash, uning muhim jihatlarini ajratish, yangi o'zlashtirgan bilimlarni avvalgilari bilan bog'lash, bilimlarini umumlashtirish, takrorlash va ularni amalga tatbiq qilganda, muhim qarorlar qabul qilishda va masalalarni hal qilishda egallanadi;
- o'quv malakalari talabalarning ta'lim jarayonida barcha o'quv-bilish faoliyatlari bilan bog'liq holda olib boriladi;

- o'quv malakalarini hamda bilim olishlarini oshirishda ularning qiziqishlari, psixologik xususiyatlari inobatga olgan holda mustaqil ta'lim topshiriqlari ishlab chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun 2020-yil 23-sentyabr
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF5847-sonli "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi"
3. <https://jizzax.uz/3990-eng-havfli-huruzh-bu-ahborot-huruzhidir.html>
Mustaqil tadqiqotchi E.IsmatovM